

**O'zbekiston SSR da masjidlar ishining tashkil etilishi yutuq  
va kamchiliklar, masjid xodimlariga qilingan munosabat.**

*Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li*

[arslonbekovnursulton@gmail.com](mailto:arslonbekovnursulton@gmail.com)

*Qarshi davlat universiteti doktoranti (PhD)*

***Annotatsiya:** Maqolada 1943 - yilda ish boshlagan yangi O'rta Osiyo va Qozog'iston Diniy Nazoratining hududlarda masjidlar ochish bo'yicha qilgan urinishlari, Moskvaning qat'iy talablari asosida noqonuniy deb topilgan bir qancha masjidlar berkitilishi va 1960-yillardan keyingi omon qolish davrida diniy boshqarma xodimlariga qo'yilgan moliyaviy soliqlar yuki, bosqichma bosqich odamlarning dinga ergashmasligi uchun ateistik targ'ibotning kuchayishi haqida fikrlar yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** masjid, hayit, konferensiya, madrasa, Hindsiton diniy jamoati.*

Ikkinchi jahon urushi davom etarkan xalqning ruhiy ehtiyojlari va oddiy odamlarni yanada urushga kengroq jalb qilish uchun I.V.Stalin boshchiligidagi hukumat barcha dinlar qatori islom diniga ham qonuniy erkinlik bera boshladi.[1-309b.]

Albatta masjidlarni ochishdan ko'zlangan eng katta maqsad xalqni birlashtirish va urush uchun asosiy kerakli bo'lgan qurol - yarog', oziq-ovqat uchun pul va xayriya zayomlarini yig'ish edi.

Muhammad(s.a.v) aytgan " Vatanga bo'lgan muhabbat iymondandir" degan xadislari bo'yicha bosh ko'tarib, diniy soxa vakillari butun musulmonlarga qarata nemis fashizmining madaniyat,xo'jalik va boshqa sohalardagi misli ko'rilmagan buzg'unchiliklarini va Qrimda, Kavkazda,Ispaniyada musulmonlarning muqaddas joylarini vayron qilganliklarini ko'rsatib, butun musulmonlarga qarata o'zlarining murojaatnomalarini chiqarib tarqatdilar.Butun islom dinidagi dindorlar o'z mol-mulkklarini,jonlarini va o'zlarining jondan aziz farzandlari bilan vatanning

dushmani bo'lgan nemis fashizmiga va uning Yevropadagi sheriklariga qarshi g'azotga chaqirib o'lsang shaxid o'ldirsang g'oziy bo'lasan degan diniy shiorlar bilan vatandoshlik ishida ishtirok etdilar. [2-5-6-v].

Buxoro, Namangan, Andijon, Nukus, Farg'ona, Qarshi, Termiz, Samarqand viloyat kompartiya rahbarlariga O'zbekiston SSR diniy ishlar kengashi vakili Ibodov yo'llagan xatida mavjud hududlarda dindorlarni "Tank qurilishi uchun fond tuzishga " targ'ib qilishga buyruq beradi. [2-38-12-v.]

Hududlarda masjidlar ochilishiga ruxsat olish anchayin qiyin vazifa edi. Masjidlarga ruxsat olish uchun Markazning quyidagi talablarini bajarish kerak edi. Masjidning ahvoli, moddiy-texnik bazasi, masjidga boruvchi odamlar soni, arizachilar imzosining to'g'riligi, arizachilarning saylov huquqiga ega yoki ega emasligi, masjidning sanitar holati, yong'inga qarshi qurollarga egaligi, masjidda sholcha va na'mat kabilarning ta'minlanganligi kabilar. Eng asosiysi agar masjid joylashgan joyda boshqa ishlayotgan masjid bo'lsa ariza qaytarilardi. [3-185b.]

1945 - yilga kelib quyidagi masjidlar Moskva ruxsati bilan ochiladi:

1. Leninskiy masjidi - Andijon viloyati.
2. Qoratosh masjidi - Toshkent shaxri.
3. Qiyot masjidi - Toshkent shaxri.
4. Baroqxon masjidi - Buxoro viloyati.
5. Oltin obod masjidi - Toshkent viloyati.
6. No'g'ay - qo'rg'on masjidi - Toshkent viloyati.
7. Xazrati - jahon masjidi - Buxoro viloyati.
8. Xonaqo masjidi - Farg'ona viloyati.

Shunga qaramasdan joylarda ruxsat berilgan masjidlarning ozligi xalqning diniy ehtiyojlarini qoplama edi. Natijada hududlarda ruxsatsiz faoliyat olib boruvchi masjidlar soni ortdi. Misol uchun Farg'ona viloyatida bunday masjidlar soni 15ta bo'lsa, Andijon viloyatida qariyb 100ta - 95ta masjid ruxsatsiz ochildi. Bu kabi holatlar butun Respublika va qardosh jumxuriyatlarda ro'y berib, Markazning xushyorligini oshirdi.

1945 - yilda 61kishi 4marotaba ariza bilan SSSR XKS qoshidagi Din ishlari bo'yicha kengash rahbari I.V.Polyanskiyga murojaat qiladi. Ularning maqsadi Andijon viloyati Andijon tumani Leninskiy savxozida joylashgan "Ahmad Ali Maxdum" masjidini ochishni iltimos qilish edi. Vanihoyat, Kengashning O'zSSRdagi vakili Ibodov va Andijon viloyatidagi vakili Abdurahmonovlar nomiga 1945-yil 30-avgustda №608 raqamli buyruqda kelgan xatga ko'ra ruxsat beriladi.[2-44-16-v].

Dinga nisbatan erkinlik berilsada , aslida bu siyosiy talabdan kelib chiqqanligi uchun, sovet hukumati nima qilib bo'lsada aholini qo'rqitish, nikoh va janoza kabi eng muhim diniy amallarni taqiqlash (ayniqsa, harbiylar orasida) siyosatini yurgizdi. Bu maqsadda xatto dindor ruhoniylarning , xususan, masjid imomlari va soha rahbariyatiga bosimlar to'htagan emas.

Bunga yorqin misol, yuqorida tilga olingan "Ahmad Ali Maxdum" masjidi imomi Tursun qori Do'smatovga qilingan tazyiqlar. Bu kishi 65yoshida mahalla xalqining talabi va diniy savodxonligi tufayli, masjidga imom etib tayinlanadi. Uning xalq orasidagi obro'si tufayli 1947 - yilda imomga nisbatan O'zSSR moliya vaziri Cherkasin chiqargan qarorga ko'ra 11058so'm daromad solig'i solinadi. Tursun qori Do'smatovning 1947 - yilda masjid ma'muriyatiga va O'rta Osiyo va Qozog'iston diniy nazoratiga yo'llagan hisobotida shu yili nikoh va janozadan tushgan daromadning 3420so'm ,bo'lganligi, uning yillik maoshi esa 6000 so'm ekanligi nazarda tutilsa, bu jiddiy ayblovdur. 69yoshli imomning Markazga jo'natgan ariza xatida shu yili, soliq xodimlari uning uyidagi qo'y va echkisini majburan olib ketadilar.Bu kabi holatlar u yoki bu ko'rinishda mamlakat bo'ylab takrorlanib turgan.[4-279b.]

Xulosa: sovet davlatining ikkiyuzlamachi diniy siyosati natijalari og'riqli bo'lsada, mamlakatimiz xalqlari uchun ozgina diniy erkinlikning berilishi ham ulkan voqea hisoblangan.Yaqin o'tmishda ateizm keng targ'ib qilingan, dindorlar siquvga olinishiga qaramasdan milliy o'zlikka intilish, qadimiy urf - odat va an'analarga sadoqat xalqimiz hayotining ajralmas qismi sifatida saqlanib qolgan.Masjidlarni ochish va keyingi faoliyatini amalga oshirish ulkan sabr va

irodani talab qilsada, diniy nazorat xodimlari va oliyjanob xalqimiz bu yo'ldan bir kun bo'lsin qaytmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. SSSR Konstitutsiyasi 124-modda //Moskva . 1936-yil - 309b.
2. O'z Milliy davlat arxivi 2456 - fond 60-ish 5-6-vv.
3. Usmonxo'jayev A. Dinimiz fidoyilari (tarix,xotiralar,saboqlar). - Toshkent: Tafakkur, 2021. - 185b.
4. Salmonov A. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati:uydirma va tarix haqiqati (1917 -1960 yillar). - Toshkent: Tafakkur, 2015. - 279b.